TA’LIM TIZIMIDA XOTIN-QIZLAR GENDER TENGLIGI ASOSIDA IJTIMOIY SIYOSIY FAOLLIGINI INNOVATSION TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI.



Musurmanova Oynisa Musurmanovna
Respublika Oila va xotin- qizlar qo‘mitasi huzuridagi “Oila va gender“ ilmiy-tadqiqot instituti direktor o‘rinbosari. Pedagogika fanlari doktori, professor
Elektron pochta: aynisa.musurmanova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim tizimida xotin-qizlar gender tengligi asosida ijtimoiy siyosiy faolligini innovatsion takomillashtirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, gender tenglik, xotin-qizlar, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, erkak va ayol, innovatsion mexanizm, normativ-huquqiy hujjatlar.

Аннотация

В данной статье описаны механизмы инновационного совершенствования общественно-политической активности женщин в системе образования на основе гендерного равенства.

Ключевые слова: Семья, гендерное равенство, женщины, наука, образование, мужчина и женщина, инновационный механизм, правовые документы.

Annotation

This article describes the mechanisms of innovative improvement of social political activity of women in the educational system based on gender equality.

Keywords: Family, gender equality, women, science, education, man and woman, innovative mechanism, legal documents.

Muhtaram yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg’onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g’ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida inson qadri va manfaatlarini himoya qilish, har qanday holatda ham uning huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi yotibdi. Xususan, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotining barcha jabhalarida o‘z imkoniyatlari hamda qobiliyatlarini erkin namoyon qilishlari uchun sharoit yaratish, xotin-qizlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida gender tengligiga erishish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri desak, mubolag’a bo‘lmaydi.

Gender tengligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Mingyillik Rivojlanish Maqsadlarining (MRM) eng muhim printsiplaridan biri sifatida tan olingan bo‘lib, u iqtisodiy muammolarni hal qilish va rivojlanishning boshqa ko‘plab maqsadlariga erishishning asosiy tamoyili sifatida qaraladi[5].

[5] Цели в области устойчивого развития. Цель 5: Обеспечение гендерного равенства и расширение прав и возможностей всех женщин и девочек. //https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/gender-equality/

Xalqning, millatning gender etuklik darajasi avvalo**, xotin-qizlarning bilim darajasi, intellektual salohiyati, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat sohasidagi** faolligi orqali namoyon bo'ladi.

Gender tenglik - hayotning barcha jabhalarida ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalar uchun teng huquq, mas'uliyat, imkoniyat, qadriyat va natija hisoblanadi. Gender tenglik faqat ayollarga taalluqli masala bo'lmasdan, u erkaklarning ham huquq va majburiyatlarini anglatadi.

"Gender tenglik insonni asosiy huquqlari bo'lib, uni ta'minlashda ayollarning ham, erkaklarning ham ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy manfaatlari, ehtiyojlari va ustuvorliklari hisobga olinadi. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda: "Bu imkoniyat ham bizning tariximizda umuman bo'lmagan".

Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, "2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmonlari shular jumlasidan. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga etdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda esa 35 foizga etdi.

Shu bilan bir qatorda, gender tengligini ta'minlashda tizimli islohotlar va ta'sirchan chora-tadbirlarni talab qiluvchi muammolar ham haligacha mavjud. Jumladan, xotin-qizlarning davlat hokimiyati va boshqaruvidagi faoliyati to'g'risida jamiyatdagi salbiy qarashlar ularning siyosiy jarayonlarda o'z g'oyalarini ilgari surishiga to'sqinlik qilmoqda. Aksariyat hollarda xotin-qizlarga iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan va haq to'lanmaydigan uy xo'jaligi ishlari yuklatilmoqda. Ta'limda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida keskin tafovutlar kuzatitilib, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarining 70 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etmoqda. Ta'limning pedagogika va gumanitar fanlar yo'nalishlarida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushi 68 foizni tashkil etsa, muhandis-texnik va huquqshunoslik sohalarida ularning ulushi hamon kamligicha (24 foiz) qolmoqda.

Xususan, mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimida xotin-qizlar gender tengligi asosida ijtimoiy siyosiy faolligini innovatsion takomillashtirish mexanizmlari, gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. Jumladan, 2016 yildan bugungi kunga qadar gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvida rolini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2 ta qonuni, Prezidentning 9 ta Farmon va qarori, hukumatning 18 ta qarori qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tegishli qarori bilan "2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" ishlab chiqildi[6] va hayotga tatbiq etilmoqda.

Ayrim holatlarda oila a'zolari o'zlarini namoyon etishlarida imtiyozlar yaratish bo'yicha huquqiy baza yaratilgan bo'lsa-da ijtimoiy- siyosiy jihatdan sustligi, oilalarning notinchligi, ajrim

[6] "2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида"ги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори. СҚ-297-IV-сон 28.05.2021 (https://lex.uz/docs/5466673)

holatlarining mavjudligi, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kam ta’minlanganligi, tazyiq va zo‘ravonlikning mavjudligi, gender tenglik borasida ongida noto‘g’ri tushunchalar shakllanib qolganligi kabi salbiy holatlar mavjud.

Ta’lim tizimida xotin-qizlar gender tengligi asosida ijtimoiy siyosiy faolligini innovatsion takomillashtirish mexanizmlari, shuningdek, kasb tanlash, oliy o‘quv yurtida tahsil olish, oliy o‘quv yurtida tahsil olish davrida turmushga chiqqan qizlarning o‘qishni davom ettirish yoki ettirmasligi, shuningdek oliy o‘quv yurtini tamomlagan yosh mutaxassislarning o‘z kasb sohalarida mehnat qilish yoki qilmasligi, mamalakatning ijtimoliy siyosiy hayotida faol qatnashish yoki qatnashmasligi turmush o‘rtog’igi va uning oilasiga bog’liq bo‘lib qolishi kabi muammolar barcha oilalarda o‘z echimini topgan emas.

Insoniyat paydo bo‘lgandan buyon ayollarning aqliy salohiyati va qobiliyat resurslari, imkoniyatlardan etarli darajada foydalanib kelinmagan. Ular jamiyatda faol bo‘lishda, o‘z taqdirini o‘zi belgilashda kam vakolatga ega bo‘lganlar. Albatta bunday tengsizlik har bir oilaning mustahkamligi, jamiyatning taraqqiyotiga to‘sqinlik qiladi. Agar ayollarga o‘z salohiyatlarini to‘liq ishga solish taqiqlansa, bu har bir oilaning, jamiyatning taraqqiyotini ellik foyizga cheklash demakdir. Bu esa oilani ham jamiyatni ham tanazzulga olib kelishi tabiiydir. Shu bois, erkaklar va ayollarning salohiyatlari, imkoniyatlaridan **oilani va jamiyatni taraqqiy ettirishda teng foydalanish**,ular uchun bir xil shart-sharoit yaratish gender tenglikni ta’minlashning asosiy tamoyili hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g’risida”gi (2019) qonunida qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, ochiqlik va shaffoflik xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarining ta’minlanishi belgilab qo‘yilganligi jamiyatda xotin-qizlarning imkoniyatlari va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi[7].

Mazkur qonunning ahamiyati shundaki, davlat tomonidan xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarish, saylov jarayonida teng ishtirok etish, sog’liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishiga erishish mamlakatimizda gender strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab qo‘yildi.

Aslida zamonaviy oilalarda gender tenglikning negizida jismonan nozik bo‘lgan ayollar manfaatini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini oshirish, ayollar mehnatini muhofaza qilish, ish soatini qisqartirish, kechki va og’ir ishlarda yosh bolali onalar mehnatini taqiqlash, bilim olishi va kasb egallashi, salomatligini har tomonlama himoya etish, farzand tarbiyasida shart-sharoit yaratish, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, qaror qabul qilishda teng huquqlikni ta’minlash kabi masalalar yotadi.

Shuning bilan bir qatorda gender tengsizlik oqibatida milliy va diniy urf-odatlar hamda oilada ayollarni tahqirlovchi illatlar ya’ni, erta nikoh, ajrimlar oqibatida iqtisodiy va ijtimoiy tahqirlanish, oilaviy qashshoqlik, kelishmovchiliklar, ishsizlik, jinsiga ko‘ra kamsitish, zulm o‘tkazish, nizo va ziddiyatlar, kasb o‘rganishiga imkoniyat qoldirmaydigan, iqtisodiy qaramlikka olib keladigan holatlar vujudga keladi.

Shuning uchun zamonaviy oilalarda gender tenglikning ta’minlanishi har bir davlatning, millatning urf-odatlari, diniy qarashlari va aqidalarga ham bog’liq. Oilada yumushlarida, qishloq xo‘jaligida va sanoatda jismoniy kuch birinchi o‘rinni egallab kelgan. Shuning uchun ushb**u sohalarda erkakka nisbatan jismonan ojizroq bo‘lgan ayol erkakka yon berishga majbur bo‘ladi.**

Demak, ta’lim tizimida xotin-qizlar gender tengligi asosida ijtimoiy siyosiy faolligini innovatsion takomillashtirish mexanizmlari, ayol va erkaklarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi

[7] Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги қонуни. – 2019 йил 2 сентябрь.

ishtirokini kengaytirish, ularning insoniy huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini saqlash borasida samarali faoliyat olib boradi. Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar esa zamonaviy oilalarda erkaklar va xotin-qizlarning bu boradagi sa'y-harakatlarni kengaytirish, jamiyatdagi amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori. SQ-297-IV-son 28.05.2021 (https:G'G'lex.uzG'docsG'5466673)

2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. – 2019 yil 2 sentyabr.

3. Цели в области устойчивого развития. Цель 5: Обеспечение гендерного равенства и расширение прав и возможностей всех женщин и девочек. //https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/gender-equality/

4. Narbaeva, T., Musurmanova, A., & Ismailova, Z. (2023). Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family. Science and innovation, 2(B1), 49-59.

5. Мусурмонов, Р., & Мусурмонова, М. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. Science and Education, 1(Special Issue 4), 223-231.

6. Ismailova, Z., Choriev, R., Musurmanova, A., & Aripjanova, M. (2020). Methods of training of teachers of university on advanced training courses. Journal of Critical Reviews, 7(5), 413-416.

7. Мусурманова, А. (2019). Концептуальные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования. Проблемы педагогики, (1 (40)), 5-7.

8. Musurmonov, R., Burkhonov, A., & Musurmonova, M. (2021). Innovative activity-a factor of educational efficiency. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 8(3), 1238-1241.

9. Aynisa, M. (2018). Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. Проблемы педагогики, (1 (33)), 5-7.

10. Мусурманова, О., Палуанова, Х., Рискулова, К., & Курбаниязова, З. (2019). Педагогик атамалар луғати: ўзбек, рус, инглиз тилларида. Т.:"TURON_IQBOL.

11. Musurmanova, A., & Abdukhayotovna, A. K. (2023). THE MOVEMENT OF FOREIGN COUNTRIES IN PROTECTING WOMEN'S RIGHTS AND THE CONTENT OF REFORMS IN OUR COUNTRY. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(1), 1074-1080.